

## **CREATING A TOURIST PRODUCT FOR THE SAMARKAND REGION**

Abdalimova D. M.

SamISI “Servis” fakulteti talabasi

Tursunova G. R.

SamISI “Turizm” kafedrası dotsenti

### **Abstract**

This article examines the issues of creating competitive tourism products based on the rich historical, cultural, and natural potential of the Samarkand region. The study analyzes the region’s tourism resources, infrastructure capacity, and service sector, and considers ways of developing tourism products in line with modern market requirements. In addition, practical recommendations are proposed for designing innovative tourism products for the Samarkand region, taking into account the needs of domestic and international tourists.

**Keywords:** Tourism product, tourism resources, infrastructure, service sector.

### **Introduction**

**Анотация:** В данной статье рассматриваются вопросы формирования конкурентоспособных туристских продуктов на основе богатого историко-культурного и природного потенциала Самаркандской области. В ходе исследования анализируются туристские ресурсы региона, состояние инфраструктуры и сферы обслуживания, а также рассматриваются пути создания туристских продуктов в соответствии с современными требованиями туристского рынка. Кроме того, предлагаются практические рекомендации по разработке инновационных туристских продуктов с учетом потребностей внутренних и иностранных туристов.

**Ключевые слова:** туристский продукт, туристские ресурсы, инфраструктура, сфера услуг, сувинеры.

## Kirish

Bugungi kunda turizm sohasi jahon iqtisodiyotining eng tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri bo'lib, hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, boy tarixiy-madaniy merosga ega bo'lgan hududlarda turistik mahsulotlarni to'g'ri shakllantirish va bozorda samarali taklif etish masalasi dolzarb hisoblanadi. Shu jihatdan qaraganda, Samarqand viloyati O'zbekiston Respublikasining eng muhim turistik hududlaridan biri sifatida alohida e'tiborga loyiqdir. Samarqand viloyati qadimiy me'moriy yodgorliklari, UNESCO Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan tarixiy obidalari, milliy an'analari hamda qulay geografik joylashuvi bilan ajralib turadi. Biroq hududning mavjud turistik salohiyatidan to'liq va samarali foydalanish uchun turistik mahsulotlarni zamonaviy talablar asosida yaratish va takomillashtirish zarur. Turistik mahsulot nafaqat alohida obyekt yoki xizmat, balki turist ehtiyojlarini qondiruvchi kompleks xizmatlar majmuasidan iborat bo'lishi lozim. Mazkur maqolada Samarqand viloyati misolida turistik mahsulot yaratish jarayoni, uning asosiy bosqichlari hamda hududiy xususiyatlarni inobatga olgan holda raqobatbardosh turistik mahsulotlar ishlab chiqish masalalari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari hududiy turizmni rivojlantirish, yangi tur paketlar yaratish va turizm sohasida faoliyat yuritayotgan mutaxassislar uchun amaliy ahamiyatga ega bo'lishi ko'zda tutiladi.

Samarqand shahri O'zbekistonning eng qadimiy va eng mashhur turistik markazlaridan biri hisoblanadi. Bu yerga kelayotgan mahalliy va xorijiy sayyohlar uchun turli xil asosiy xizmatlar yaxshi yo'lga qo'yilgan. Ayniqsa, mehmonlarni qabul qilish, joylashtirish, transport va ekskursiya xizmatlari turizmning muhim qismi hisoblanadi.

Eng avvalo, joylashtirish xizmatlari haqida aytish mumkin. Samarqandda turli toifadagi mehmonxonalar mavjud bo'lib, ular zamonaviy mehmonxonalar, milliy uslubdagi mehmon uylari (guest house), hamda oilaviy mehmonxonalarni o'z ichiga oladi. Ko'plab mehmonxonalar Registon maydoni va tarixiy obidalarga yaqin joylashgan bo'lib, bu sayyohlar uchun juda qulaydir. Mehmonxonalarda nonushta, WI-FI, tozalash xizmati va boshqa qulayliklar mavjud. Ikkinchi muhim xizmat turi bu ovqatlanish xizmatlaridir. Samarqand oshxonasi o'zining milliy taomlari bilan mashhur. Shaharda milliy restoranlar, choyxonalar va zamonaviy kafelar faoliyat yuritadi. Sayyohlar bu yerda Samarqand palovi, nonlari,

shirinliklari va boshqa milliy taomlardan bahramand bo'lishlari mumkin. Ko'plab ovqatlanish maskanlari milliy ruhda bezatilgan bo'lib, bu mehmonlarda katta qiziqish uyg'otadi. Transport xizmatlari ham Samarqand turizmida muhim o'rin tutadi. Shaharga temir yo'l, avtomobil va havo transporti orqali kelish mumkin. Ichki harakat uchun taksilar, jamoat transporti va turistik avtobuslar xizmat ko'rsatadi. Shuningdek, ayrim tur firmalar tomonidan sayyohlar uchun maxsus transport xizmatlari ham tashkil etilgan. Yana bir asosiy xizmat turi bu ekskursiya va gidlik xizmatlaridir. Samarqandda tajribali gidlar faoliyat yuritib, ular sayyohlarga Registon ansambli, Shohi Zinda, Bibixonim masjidi, Amir Temur maqbarasi kabi tarixiy obidalar haqida batafsil ma'lumot berishadi. Ekskursiyalar bir necha tilda olib borilishi sayyohlar uchun katta qulaylik yaratadi.

Bundan tashqari, savdo va suvenir xizmatlari ham rivojlangan. Shaharda milliy hunarmandchilik buyumlari, ipak mahsulotlari, kulolchilik va zargarlik buyumlarini xarid qilish mumkin. Bu mahsulotlar sayyohlar uchun esdalik sovg'a sifatida katta ahamiyatga ega. Xulosa qilib aytganda, Samarqand shahrida asosiy turistik xizmatlar yetarli darajada rivojlangan bo'lib, ular sayyohlarning ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi. Ushbu xizmatlar Samarqandning turistik jozibadorligini yanada oshirib, ichki va tashqi turizm rivojiga katta hissa qo'shmoqda.

### 1-jadval Samarqand viloyatidagi 1-5 yulduzgacha bo'lgan mehmonxonalar nomi<sup>3</sup>

| №  | Mehmonxona yulduzi                | Mehmonxona nomi                                                                                                                                                                    |
|----|-----------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| 1. | 1 yulduzli mehmonxona (1)         | Hotel Javlonbek 1                                                                                                                                                                  |
| 2. | 2 yulduzli mehmonxona (1)         | SULTANAT Samarkand                                                                                                                                                                 |
| 3. | 3 yulduzli mehmonxonalar (134 ta) | Begzod's LoftHouse<br>El Emir Hotel<br>Hotel Ravshanbek<br>SandHill Hotel Samarkand<br>Shahram Plus Boutique<br>UMMU ROHAT guest house<br>Status Inn Hotel<br>ANNUR Boutique Hotel |
| 4. | 4 yulduzli (37)                   | ZAAL Hotel<br>Hilton Garden Inn<br>Samarkand Continental Hotel Samarkand DiliMah Premium<br>Luxury Siab Hotel Premium<br>Savitsky Plaza<br>Ametist Hotel Complex<br>Rabat Boutique |
| 5. | 5 yulduzli (4)                    | Silk Road by Minyoun Hilton Samarkand Regency<br>Movenpick Samarkand<br>Zarafshon Parkside                                                                                         |

Samarqand shaharda 1 yulduzli mehmonxonalar soni 1 ta. Mehmonxonadagi qo‘shimcha xizmatlar: yo‘lovchi tashish xizmati, aeroportga olib boruvchi maxsus avtobus xizmati, aeroportdan kutib olish va aeroportga olib borish kabi qo‘shimcha xizmatlar mavjud.

2 yulduzli mehmonxonalar soni 1 ta. Mehmonxonadagi qo‘shimcha xizmatlar: kir yuvish xizmati, yo‘lovchi tashish xizmati, aeroportga olib boruvchi maxsus avtobus xizmati, aeroportdan kutib olish va aeroportga olib borish kabi qo‘shimcha xizmat mavjud.

3 yulduzli mehmonxonalar soni 129 ta. Mehmonxonadagi qo‘shimcha xizmatlar: dazmollash xizmati, qurutish xizmati, kir yuvish xizmati, oziq-ovqat xizmati, yo‘lovchi tashish xizmati; aeroportga olib boruvchi maxsus avtobus xizmati; aeroportdan kutib olish va aeroportga olib borish kabi qo‘shimcha xizmatlar mavjud.

4 yulduzli mehmonxonalar soni 37 ta. Mehmonxonadagi qo‘shimcha xizmat: dazmollash xizmati, qurutish xizmati, kir yuvish xizmati, xabar yuborish xizmati, yo‘lovchi tashish xizmati; aeroportga olib boruvchi maxsus avtobus xizmati; aeroportdan kutib olish va aeroportga olib borish kabi qo‘shimcha xizmatlar mavjud.

5 yulduzli mehmonxonalar soni 4 ta. Mehmonxonadagi qo‘shimcha xizmat: baliq ovlash, vino, shanpan ichimliklari, bolalar ovqati, majlis zali, banket stollar, masaj, dazmollash xizmati, kir yuvish xizmati, yo‘lovchi tashish xizmati; aeroportga olib boruvchi maxsus avtobus xizmati; aeroportdan kutib olish va aeroportga olib borish kabi qo‘shimcha xizmatlar mavjud. Barcha qo‘shimcha xizmatlar malum bir to‘lov miqdori orqali amalga oshiriladi.

Samarqand shahrida asosiy turistik xizmatlar bilan bir qatorda qo‘shimcha xizmatlar ham yaxshi rivojlangan. Ushbu xizmatlar sayyohlarning dam olish jarayonini yanada qulay va mazmunli qilishga xizmat qiladi hamda ularning shaharda qolish muddatini uzaytirishga yordam beradi. Avvalo, ko‘ngilochar va madaniy xizmatlarni aytish mumkin. Samarqandda milliy musiqa va raqslar namoyishi, folklor guruhlar chiqishlari, tarixiy liboslarda sahnalashtirilgan tomoshalar tashkil etiladi. Ba’zi mehmonxona va restoranlarda kechki madaniy dasturlar sayyohlar uchun qiziqarli bo‘ladi. Wellness va dam olish xizmatlari ham qo‘shimcha xizmatlar sirasiga kiradi. Shaharda SPA markazlar, hammomlar, massaj xonalari va fitnes zallari mavjud. Ayniqsa, milliy hammom xizmatlari

xorijiy sayyohlar orasida katta qiziqish uygʻotadi. Keyingi muhim yoʻnalish-savdo va hunarmandchilik xizmatlaridir. Samarqandda hunarmandchilik markazlari, bozorlar va suvenir doʻkonlari faoliyat yuritadi. Sayyohlar kulolchilik, ipak mahsulotlari, qoʻl mehnati asosida tayyorlangan buyumlarni xarid qilish bilan birga, ularni tayyorlash jarayonini ham tomosha qilishlari mumkin. Shuningdek, fotoxizmatlar ham keng tarqalgan.

Tarixiy obidalar fonida professional fotosessiyalar, milliy liboslarda suratga tushish xizmatlari mavjud. Bu xizmatlar sayyohlar uchun esdalik sifatida katta ahamiyatga ega. Axborot va tarjima xizmatlari ham qoʻshimcha xizmatlar qatoriga kiradi. Turistik axborot markazlari, xaritalar, bukletlar, audio-gidlar va tarjimonlar sayyohlarga qulaylik yaratadi. Ayrim joylarda QR-kodlar orqali maʼlumot olish imkoniyati ham mavjud. Bundan tashqari, tashkiliy xizmatlar ham taklif etiladi. Bularga bayramlar, toʻy marosimlari, konferensiya va seminarlar uchun joy ajratish, bezatish va xizmat koʻrsatish kiradi. Bu xizmatlar ayniqsa ishbilarmonlik turizmi uchun muhim hisoblanadi.

## 2-jadval Samarqandda mavjud soviner mahsulotlarining turlari

| Suviner turi                        | Asosiy material         | Izoh                                                                                           |
|-------------------------------------|-------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Qoʻlda ishlangan gel idishlar       | Gel                     | Chinni va sopol idishlar, rangli naqshlar bilan bezatilgan                                     |
| Sopol figuralar                     | Sopol                   | Sopol buyumlar, hayvonlar va meʼmoriy yodgorliklarning kichik, qoʻl bilan ishlangan nusxalari. |
| Qoʻlda tikilgan mato buyumlar       | Mato(paxta,ipak)        | Sumkalar, stol matolari va kiyimlari, anʼanaviy naqshlar bilan bezatilgan                      |
| Chinni vazalar                      | Chinni                  | Rangli naqshlar, dekorativ buyumlar                                                            |
| Yogʻ och oʻymakorlik buyumlari      | Yogʻ och                | Qalamdon, dekorativ haykallar, esdalik buyumlar                                                |
| Shisha buyumlar                     | Shisha                  | Rangli shisha vazalar va chiroqlar                                                             |
| Teridan yasalgan buyumlar           | Teri                    | Sumkalar, belbogʻlar boshqa anʼanaviy teri buyumlari                                           |
| Miniatura meʼmoriy obyektlari       | Sopol, gel, yogʻ och    | Registon, Shohizinda kabi meʼmoriy yodgorliklarning kichik nusxalari                           |
| Qogʻ oz va karton suvinerlar        | Qogʻ oz, karton         | Postkardlar, blaktontlar, rasmlar                                                              |
| Ipak atlas va ipak kiyimlar         | Ipak                    | Anʼanaviy Samarqand ipak atlas buyumlari, choynak oʻragichlar                                  |
| Oltin va kumush zargarlik buyumlari | Oltin, kumush           | Anʼanaviy uzuk, sirgʻa va taqinchoqlar                                                         |
| Mahalliy sham va aromatik buyumlar  | Mum yoki tabiiy yogʻlar | Shamlar, aroma paketlar, turistik sovgʻalar                                                    |
| Magnit                              | Metal, plastik          | Tursitik esdalik buyumlar, kichik sovgʻalar                                                    |

## **Xulosa**

Samarqand viloyati uchun tur paket ishlab chiqilayotgan e'tibor beriladigan yana bir muhim omil bu-Samarqand viloyati uchun kompleks turizm mahsulotini yaratish hisoblandi. Kompleks turizm mahsuloti bu-tarixiy-madaniy va gastronomik yo'nalishlarni birlashtirgan mahsulotlar yaratish va ularni ommaga jorish qilish foydali bo'ladi. Bundan tashqari suviner mahsulotlar assortimetlarini kengaytirish va ularni tur paketga kiristishni joriy etish ham juda foydali bo'ladi. Online bron qilish xizmati bizda endi rivojlanayotgan sohalardan biri hisoblanib, uni yanada keng targ'ib qilish sayyohlar oqimini yanada kengaytiradi. Chunki sayyohlar borayotgan davlatlarini avval ko'rib keyin asosiy xizmatlarini online buyutma berish ular uchun juda foydali bo'ladi. Samarqandda viloyatida gid xizmati bo'lsa ham ularning malakaviy holatini oshirish, til bilish darajasini kengaytirish asosiy omillardan biri bo'la oladi. Bu viloyatda qishloq ekologik turizmini ham rivojlantirishning istiqbollari mavjud, ularni yaxshilab o'rganib olish va tadqiqotlar o'tkazish esa turizmni juda rivojlantira oladi.

Samarqand viloyati boy tarixiy-meros, madaniy obidalar va milliy an'analarga ega bo'lib, turizm mahsulotlarini yaratish uchun katta salohiyatga ega. Hududda mavjud asosiy va qo'shimcha turistik xizmatlar sayyohlar ehtiyojini qondirishga xizmat qilmoqda. Shuningdek, hunarmandchilik, milliy taomlar va madaniy tadbirlar Samarqand turizm mahsulotining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. To'g'ri rejalashtirilgan va zamonaviy talablar asosida ishlab chiqilgan turizm mahsuloti viloyatning raqobatbardoshligini oshiradi hamda ichki va tashqi turizm rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

## **Foydalanilgan adabiyotlar va saytlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi rasmiy sayti--  
<https://www.mct.uz>
2. Samarqand viloyati Turizm boshqarmasi rasmiy sayti  
<https://samarkandtourism.uz>
3. <https://www.goldenpages.uz/uz/rubrics/?Id=3608>
4. <https://hujjat24.uz/product/samarqand-viloyati-uchun-turizm-mahsulotlarini-yaratish>